



KINO MUSIQASI

Muallif: *Tohirova Marxabo Umar qizi Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi*

Ilmiy rahbar: *Raxmatullayev Xumoyun Shafoatovich Termiz davlat pedagogika instituti*

Musiqa madaniyati va mahorati kafedrasi katta o'qituvchisi, dots.v.b.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kino musiqasining shakllanishi va rivojlanishidagi zamonaviy yo'nalishlar hamda texnologik omillar tahlil qilingan. O'zbek kinomusiqasi misolida milliy an'analar va global jarayonlar o'zaro ta'siri yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Kino musiqasi, zamonaviy yo'nalishlar, texnologiya, milliy an'ana, global madaniyat, O'zbek kinosi, musiqiy integratsiya.*

Annotation: *This article examines the formation and development of contemporary trends in film music and the impact of technological factors. It highlights the interaction between national traditions and global processes through the example of Uzbek film music.*

Key words: *Film music, contemporary trends, technology, national tradition, global culture, Uzbek cinema, musical integration.*

Аннотация: *В статье рассматриваются процессы формирования и развития современных направлений в кино-музыке и влияние технологических факторов. На примере узбекской кино-музыки освещается взаимодействие национальных традиций и глобальных процессов.*

Ключевые слова: *Кино-музыка, современные направления, технологии, национальные традиции, глобальная культура, узбекский кинематограф, музыкальная интеграция.*

Zamonaviy san'atning keng qamrovli va murakkab tarmoqlaridan biri bo'lgan kinematografiya o'zining ifoda vositalari orasida musiqani alohida o'ringa qo'yadi.



Kino musiqasi – bu nafaqat vizual tasvirni to‘ldiruvchi estetik komponent, balki syujet rivojiga, obrazlar xarakterini ochishga va tomoshabinning emotsional idrokini boshqarishga xizmat qiladigan muhim san’at shaklidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqaning film tuzilmasidagi o‘rni inson psixologiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, vizual voqealarni chuqurroq anglash va eslab qolish jarayonlarini kuchaytiradi. Kino musiqasining shakllanishi va rivojlanishi san’at, psixologiya, texnologiya va madaniyat sohalarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tarixiy ildizlari dastlabki ovozsiz filmlar davrida musiqaning ko‘makchi vosita sifatida qo‘llanilgan tajribalariga borib taqaladi. Keyinchalik, ovoz texnologiyalarining rivojlanishi bilan kino musiqasi mustaqil badiiy qatlamga aylangan va o‘zining estetik qonuniyatlarini shakllantira olgan. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, kino musiqasi – bu shunchaki fon emas, balki filmning ma’naviy-estetik mazmunini boyituvchi va tomoshabin bilan noverbal kommunikatsiyani ta’minlovchi kuchli ifoda vositasi sifatida qaraladi.

Kino musiqasining shakllanishi insoniyatning ilk kino tajribalaridan boshlangan bo‘lib, dastlabki ovozsiz filmlarda musiqaning o‘rni alohida ahamiyat kasb etgan. 1890-yillar oxiri va 1900-yillar boshlarida namoyish etilgan filmlar maxsus musiqiy hamrohligisiz voqealarni yetarlicha ifodalash imkoniyatiga ega emas edi. Shu sababli kinoteatrлarda pianinochi yoki orkestr jamoasi voqealarning dinamikasini va emotsional muhitini yaratish maqsadida filmlarga jonli musiqiy asarlar ijro etgan. Bu amaliyot kino va musiqaning tabiiy uyg‘unligini ta’minladi va musiqaning film idroki uchun muhimligini ilk bor oolib berdi.

1927-yilda “Jaz qo‘schiqchisi” (“The Jazz Singer”) filmi namoyish etilishi bilan birinchi sinxron ovozli film yaratilgan bo‘lib, bu kino sanoatida tub burilish yasadi. Endilikda musiqiy kompozitsiyalar nafaqat jonli ijroda, balki film tasmasiga biriktirilgan ovoz shaklida ham mavjud bo‘la boshladi. Shu davrdan boshlab, musiqachilar va bastakorlar maxsus filmlar uchun original musiqalar yaratishga kirishdilar. Erik Wolfgang Korngold, Maks Stayner va Dmitriy Shostakovich kabi bastakorlar kino musiqasining ilk klassik namunalarini taqdim etib, bu yo‘nalishni mustaqil san’at turi sifatida shakllantirishda katta hissa qo‘shdilar. XX asrning



o‘rtalariga kelib, kino musiqasi o‘zining janr va uslubiy xilma-xilligiga erishdi. Ayniqsa, Gollivudda faoliyat yuritgan kompozitorlar film syujeti va xarakterlariga moslab tematik musiqiy mavzular (leitmotivlar) yaratishni boshladilar. Bu yondashuv musiqaning obraz yaratish va dramatik kuchni oshirishdagi rolini mustahkamladi. Shu tariqa, kino musiqasi nafaqat fon rolini bajaruvchi, balki filmning badiiy ifodasiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida rivojlandi.

Kino dramaturgiyasida musiqaning roliga bag‘ishlangan birinchi maxsus nazariy tadqiqotlar 1930-yillarga to‘g‘ri keladi. I.Ioffe o‘zining «Sintetik tadqiqot, san’at va ovozli kino», «Sovet kinosi musiqasi» kabi nazariy manbalar kino musiqasi masalalarini o‘rganishda noyob manbaligi bilan ajralib turadi. Kino nazariyasiga oid muhim ishlardan biri M. Martinning “Kino tili” kitobidir. Ushbu kitob nafaqat muallif murojaat qilgan musiqa va kino arboblarining nuqtayi nazarini aks ettiradi, balki G‘arbda ma’lum darajada keng tarqalgan va o‘rnatilgan qarashlarni jamlagan. M. Martin asosiy talablardan biri sifatida filmda musiqaning “yashirinlik” xususiyatini ilgari suradi. Umumiy olganda M. Martin musiqani filmning hissiy-emotsional kayfiyat bag‘ishlovchisi sifatida tan oladi.¹

Zamonaviy kino musiqasi, badiiy va texnologik yangiliklar bilan uyg‘unlashib, yangi shakllar va uslublarni yaratishda muhim o‘rin egallaydi. Kino musiqasi an’anaviy va elektron tovushlarni birlashtirish, global madaniyat ta’siridan foydalanish va raqamli texnologiyalar yordamida yangi ijodiy imkoniyatlarni kashf etishda yangi tendensiyalarni ko‘rsatadi. Birinchi tendensiya – janrlararo integratsiya va uslubiy xilma-xillik. Bugungi kunda, kino musiqasi nafaqat an’anaviy elementlar, balki elektron va eksperimental tovushlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu, o‘z navbatida, musiqaning emosional ta’sirini kuchaytiradi va filmning syujeti bilan yaxshiroq uyg‘unlashishga yordam beradi. Ikkinci tendensiya – texnologik innovatsiyalar va raqamli vositalardan foydalanish. Kompyuter dasturlari va raqamli texnologiyalar yordamida musiqiy kompozitsiyalar yaratish soddalashdi. Bu esa

¹ F.Sobirov. (2024). Musiqiy sayqalning kino san’atida tutgan o‘rni. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. 79-82-betlar.



kinomuzikantlarga yangi tovushlar yaratish imkoniyatini beradi va musiqaning kino tasviriga qo'llanish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Global madaniyat ta'siri kino musiqasining uchinchi tendensiyasidir. Bugungi kunda kino musiqasi ko'proq global madaniyat bilan bog'liq. Xalqaro festivallarda o'zbek kino musiqasining namoyishi uning jahon miqyosida tanilishiga yordam beradi, bu esa turli madaniyatlarning o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Musiqa va tasvirning sintezi zamonaviy kinolarda ajralmas o'rinni tutadi. Musiqa va vizual effektlarning uyg'unligi filmlarning emotsiyal va estetik ta'sirini kuchaytiradi. Kino tasvirlarini yanada jonlantiradigan musiqa, tomoshabinga chuqurroq ta'sir ko'rsatadi va filmdagi voqealar bilan bog'lanishni kuchaytiradi. So'nggi tendensiya – musiqa ta'limi va yosh ijrochilarning roli. Zamonaviy kino musiqasining rivojlanishi ta'lim muassasalarining ahamiyatini oshiradi. Yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish, yangi vokal ijrochilagini o'rgatish orqali kino musiqasining yangi yo'nalishlari yaratiladi.

Umuman olganda, kino musiqasining zamonaviy tendensiyalari texnologik yangiliklar, global madaniyatning ta'siri, janrlararo integratsiya va musiqa ta'limining rivojlanishi bilan bog'liq. Bu omillar kino musiqasining badiiy va emosional ta'sirini kuchaytirib, uni yangi darajaga olib chiqmoqda.

Kino san'ati insoniyat tafakkurining, estetik didining va madaniy hayotining yorqin aksidir. Uning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan musiqa esa filmning mazmunini chuqurlashtiruvchi, g'oyaviy-yuksaklikka olib chiquvchi va tomoshabinning hissiy holatini boshqaruvchi kuchli vositadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kino musiqasi zamonaviy davrda ko'p qirrali rivojlanish yo'liga kirgan bo'lib, u janrlararo integratsiya, texnologik innovatsiyalar, global madaniyat ta'siri, musiqaviy ta'lim va tasvir-musiqa uyg'unligi kabi omillar bilan boyimoqda. Hozirgi kunda kino bastakorlari nafaqat klassik musiqiy shakllardan, balki elektron, etnik va eksperimental yo'nalishlardan ham keng foydalanmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, kino musiqasining badiiy ifoda vositalarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlarining rivojlanishi musiqaning kinodagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shuningdek, madaniy globallashuv sharoitida turli milliy musiqiy an'analar bir-biriga singib borayotgani, kino san'atida o'ziga xos



transmilliy musiqiy uslublarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston kinomatografiyasi ham ushbu jarayondan chetda qolmagan. Yurtimizda suratga olinayotgan filmlarda o‘zbek xalq kuy va ohanglari zamonaviy musiqiy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirilmoqda. Bu esa milliy madaniyatimizni keng auditoriyaga yetkazish va kino mahsulotlarining estetik qiymatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa qilib aytganda, kino musiqasi nafaqat filmni to‘ldiruvchi vosita, balki uning semantik va hissiy asosini tashkil etuvchi muhim san’at shaklidir. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirish, zamonaviy bastakorlik maktablarini rivojlantirish va yosh avlodni musiqiy kino ijodkorligiga jalb etish kelajakda kino musiqasining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, kino musiqasi nafaqat ko‘ngilxushlik, balki tarbiyaviy, estetik va madaniy-ma’rifiy ahamiyatga ega san’at sohasi sifatida qaralishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.A. Ibrohimov, G‘.M. Xudoyev. Musiqa tarixi. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 312 b.
2. Хангельдиева И.Г. Музыка в синтетических видах искусства. М., 1987. – 44 с.
3. R.Tursunova, G.Tursunova. Jahon musiqa tarixi. -T.: “Voris-nashriyoti”, 2017,152 bet.
- 4.Raxmatullaev, X. S. (2023). Musiqaning kashf qilinishi haqidagi nazariyalar. tarixgacha bolgan davr. Solution of social problems in management and economy, 2(4), 70-75.
5. Feruza Asqar. Musiqa va inson ma’naviyati. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000-96 b.
6. Yakubov B. R. Ma’ruzalar matni. - Farg‘ona. 2015. - 164.
7. F.Sobirov. (2024). Musiqiy sayqalning kino san’atida tutgan o‘rni. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. 79-82-betlar.